UO‘K: 81’42:81’27:165

KINOYA VA SARKAZMNING NAZARIY-LINGVISTIK ASOSLARI: SEMIOTIK, KOGNITIV VA PRAGMATIK TAHLIL (O‘ZBEK TILI MATERIALLARI ASOSIDA)

Boboqulova Irodaxon
Alfraganus universiteti,
Xorijiy filologiya fakulteti
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Irodabobokulova8@gmail.com

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.24102219***

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada kinoya va sarkazm hodisalarining zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy asoslari – semiotik, kognitiv, psixolingvistik, pragmatik hamda tarjimashunoslik yondashuvlari prizmasida kompleks tadqiq etiladi. Ferdinand de Sossyur va Charlz Pirsning semiotik modellari, J. Lakoff va M. Jonsonning kognitiv metafora konsepsiyasi hamda Pol Graysning kommunikativ implikatura nazariyasi asosida kinoyaning ma’no hosil qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi “zaharxanda kinoya”, “istehzo” va “pisanda” kabi konseptual birliklarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari ochib beriladi hamda E. Nida modeli asosida ularning tarjimadagi ekvivalentlik muammolari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *kinoya, sarkazm, zaharxanda kinoya, istehzo, semiotika, kognitiv tilshunoslik, implikatura, dinamik ekvivalentlik.*

ТЕОРЕТИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИРОНИИ И САРКАЗМА: СЕМИОТИЧЕСКИЙ, КОГНИТИВНЫЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА)

Бобокулова Иродахон
преподаватель кафедры иностранных языков
факультета зарубежной филологии
Университета Альфраганус
Irodabobokulova8@gmail.com

Аннотация*: В данной научной статье явления иронии и сарказма комплексно исследуются сквозь призму их теоретических основ в современной лингвистике: семиотического, когнитивного, психолингвистического, прагматического и переводоведческого подходов. На основе семиотических моделей Фердинанда де Соссюра и Чарльза Пирса, концепции когнитивной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона, а также теории коммуникативной импликатуры Пола Грайса анализируются механизмы смыслообразования иронии. Кроме того, раскрываются языковые и прагматические особенности таких концептуальных единиц в узбекском языке, как «захарханда кинойа» (едкая ирония), «истехзо» (насмешка/сарказм) и «писанда» (подколка/намёк), а также на основе модели Э. Ниды показаны проблемы эквивалентности при их переводе.*

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Ключевые слова: *ирония, сарказм, едкая ирония, насмешка, семиотика, когнитивная лингвистика, импликатура, динамическая эквивалентность.*

THEORETICAL AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF IRONY AND SARCASM: SEMIOTIC, COGNITIVE, AND PRAGMATIC ANALYSIS (BASED ON UZBEK LANGUAGE MATERIALS)

Irodakhon Bobokulova
Lecturer at the Department of Foreign Languages,
Faculty of Foreign Philology, Alfraganus University
Irodabobokulova8@gmail.com

Abstract*: This research article provides a comprehensive investigation into the phenomena of irony and sarcasm through the prism of their theoretical foundations in modern linguistics: semiotic, cognitive, psycholinguistic, pragmatic, and translation studies approaches. Based on the semiotic models of Ferdinand de Saussure and Charles Peirce, George Lakoff and Mark Johnson's conceptual metaphor theory, and Paul Grice's conversational implicature theory, the mechanisms of meaning generation in irony are analyzed. Furthermore, the linguistic and pragmatic features of conceptual units in the Uzbek language—such as "zaharxanda kinoya" (bitter irony), "istehzo" (sarcasm/mockery), and "pisanda" (innuendo/dig)—are elucidated, and the problems of translational equivalence are demonstrated using Eugene Nida's model.*

Keywords: *irony, sarcasm, bitter irony, mockery, semiotics, cognitive linguistics, implicature, dynamic equivalence.*

KIRISH

Kinoya (ironiya) va sarkazm faqat badiiy tasviriy vosita yoki nutqiy bezak bo‘lib qolmay, inson tafakkuri, bilish faoliyati va ijtimoiy muloqotining murakkab mexanizmlarini o‘zida mujassam etgan polifunksional hodisalardir. Tarixan adabiyotshunoslik doirasida tor ma’noda o‘rganib kelingan mazkur tushunchalar bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, lingvosemiotika, nutqiy pragmatika va psixolingvistika fanlarining tutashuv nuqtasida keng ko‘lamli nazariy ob’ekt sifatida tadqiq etilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida “ironiya” va “kinoya” atamalari uzoq vaqt sinonim sifatida qo‘llanib kelingan bo‘lsa-da, ularning semantik ko‘lami o‘zaro farqlanadi: ironiya nisbatan keng falsafiy-kategorik tushuncha bo‘lib, kinoya uning lisoniy va nutqiy jihatdan nisbatan aniq shaklini ifodalaydi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi kinoya va unga yondosh birliklarning ko‘p sathli lisoniy tabiatini nazariy modellar asosida yaxlit tizim sifatida tahlil qilishdan iborat.

Nazariy asoslar va tahlil usullari. Tadqiqotda F. de Sossyurning binar semiotik modeli, Ch. Pirsning triadik belgilar nazariyasi, J. Lakoff va M. Jonsonning kognitiv semantikasi, P. Graysning kommunikativ implikatura konsepsiyasi hamda E. Nidaning tarjimadagi dinamik ekvivalentlik tamoyillari nazariy-metodologik baza sifatida qabul qilindi.

Asosiy natijalar va tahlil. Semiotik yondashuv: Belgi va kontekst aloqadorligi. Semiotik nuqtai nazardan kinoya va tropik vositalar (metafora, metonimiya, giperbola) o‘zaro bog‘liq belgilar

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

tizimidir. F. de Sossyur ta’limotiga ko‘ra[196], har qanday belgi “ifodalovchi” (signifiant) va “ifodalanuvchi” (signifié) birligidan tashkil topadi. Kinoyada ushbu ikkala komponent o‘rtasidagi an’anaviy denotativ aloqa qasddan nomutanosiblikka uchraydi. Masalan, “yuz – beton” iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy betonni emas, balki kognitiv-semiotik ko‘chish orqali insonning sovuq, befarq ruhiy holatini ifodalaydi. Ch. Pirsning triadik modelida esa belgi uch elementdan iborat[197]: representamen (belgi shakli), obyekt (anglatilayotgan denotat) va interpretant (talqin mexanizmi). Kinoyali nutqda interpretant asosiy rol o‘ynaydi: o‘quvchi yoki tinglovchi tashqi ifodani (masalan, “Ajoyib ish bo‘libdi!”) bevosita so‘zma-so‘z emas, balki vaziyat va kommunikativ fon orqali teskari ma’noda talqin qiladi.

Kognitiv va psixolingvistik modellar. J. Lakoff va M. Jonsonning “Metaphors We Live By”[198] asarida bayon etilgan kognitiv nazariyaga muvofiq, kinoya inson ongining murakkab konseptlarni sodda modellar orqali qayta ishlash usulidir. Psixolingvistik tomondan kinoya tinglovchining assotsiativ tafakkuriga tayanadi. N. Chomskiy tilni inson tafakkurining cheksiz ijodiy manbai deb bilganidek, kinoyali ifoda nutq qatnashchisida hissiy va aqliy ziddiyat[199] (kognitiv dissonans) uyg‘otadi va matn tubidagi konnotativ qatlamni yuzaga chiqaradi.

Pragmatik mexanizm va Grays implikaturasi. Pragmatikada kinoya Pol Graysning “Hamkorlik tamoyili”[200] (Cooperative Principle) va sifat maksimasining (Maxims of Quality) ongli ravishda buzilishi asosida shakllanadi. So‘zlovchi yolg‘on ekanligi barchaga ayon bo‘lgan fikrni ataylab bildirish orqali nutqiy implikatura hosil qiladi. Masalan, qattiq yomg‘ir ostida qolgan shaxsning “Bugun havo juda musaffo!” deyishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Grays postulati buzilishidir, ammo tinglovchi vaziyat kontekstidan xabardor bo‘lgani bois undagi yashirin kinoyani to‘g‘ri kodsizlaydi.

O‘zbek tilida kinoya, sarkazm va unga yondosh kategoriyalar tahlili. O‘zbek tili leksik-semantik tizimida kinoyaning bir necha graduatsion ko‘rinishlari mavjud[201]:

1) O‘zbek tilida esa “zaharxanda kinoya”[202] iborasi kinoyaning maxsus bir turi sifatida ishlatiladi va ko‘pincha sarkazm bilan sinonimik ma’noda talqin qilinadi. So‘zma-so‘z ma’nosi “zahar bilan kulish” yoki “achchiq istehzo”ni bildiradi. Sarkazm kinoyaning yanada o‘tkir va masxarali shakli bo‘lib ko‘pincha salbiy his-tuyg‘ular masalan, tanqid yoki nafratni ifodalash uchun qo‘llaniladi. “Zaharxanda kinoya”da kinoya va sarkazm bir vaqtda qo‘llanilishi mumkin, ya’ni biror ibora yuzaki darajada oddiy ko‘rinsa-da, unda chuqur istehzo yoki tanqid yashiringan bo‘ladi.

Efiopiya “temherte slaq” belgisi ham “zaharxanda kinoya”ga tipologik muqobil bo‘la oladi, chunki u sarkazmni aniqlash va haqiqiy bo‘lmagan iboralarni belgilashga xizmat qiladi. Masalan, karikaturalarda yoki she’rlarda bu belgi biror iboraning haqiqiy emasligini va unda o‘tkir tanqid yoki

[196] 1.Saussure F. de. Cours de linguistique générale. – Paris: Payot, 1916. – 331 p.
[197] Peirce C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Vol. 2: Elements of Logic. – Cambridge: Harvard University Press, 1932. – 535 p.
[198] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
[199] Chomsky N. Language and Mind. – New York: Harcourt, Brace & World, 1968. – 88 p.
[200] Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.
[201] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – 144 b.
[202] A. G‘ulomov, O‘zbek tilida kinoya va istehzo. Toshkent: Fan nashriyoti. 2010. – pp. 45–50.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

istehzo mavjudligini ko‘rsatadi. Bu xususiyat Uilkins taklifiga ham yaqin, chunki ikkalasi ham kinoyani aniqlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Sarkazm va kinoya o‘zaro yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, sarkazm odatda keskinroq va ochiq tanqidga yo‘naltirilgan bo‘ladi. “Zaharxanda kinoya” ushbu ikki hodisaning tutash nuqtasini tashkil etib, bilvosita ifoda bilan birga o‘tkir va achchiq tanqidni mujassamlashtiradi. Masalan, oddiy kinoyada tanqid yumshoq va bilvosita ifodalanadi *“Oh, bu juda ajoyib ish!”* tarzida bo‘lsa, zaharxanda kinoyada esa baho keskin va ochiq sarkastik ohangda beriladi *“Bu sening eng muvaffaqiyatli loyihang bo‘ldi!”.* Ushbu farq kinoyaning pragmatik kuchi va kommunikativ yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi.

Zaharxanda kinoya – kinoya va sarkazmning tutash nuqtasi bo‘lib, so‘zma-so‘zn“zahar bilan kulish” degan ma’noni anglatadi. Agar oddiy kinoyada baho bilvosita hamda yumshoq berilsa (“Oh, juda ajoyib ish!”), zaharxanda kinoyada keskin, masxarali va achchiq istehzo mavjud bo‘ladi (“Bu sening eng buyuk yutug‘ing bo‘ldi!”). Bu o‘zining pragmatik kuchi jihatidan Efiopiya yozuvidagi “temherte slaq” belgisiga semantic muqobildir;

2) Istehzo (arabcha so‘z) – “ustidan kulish; mazax, piching, kinoya” degani. Kimsaning ustidan kulish, masxara qilish; masxara, mazax va uning, odatda, gap-so‘z, mimika va shu kabilar zamirida yotuvchi ifodasi. [203] Istehzo ham kinoya kabi matnni tashkil etishning eng muhim vositalaridan biridir. Istehzoli ma’noni yetkazishda ekoik ishora muhim o‘rin tutadi.

3)Pisanda – forscha so‘z bo‘lib, didga to‘g‘ri kelgan, maqbul, maqtovga, ma’qullashga sazovor degani. U oldindan qo‘yilgan talab, shart asosida paydo bo‘ladi. U “talab yoki shart tarzida aytiladigan bahona”ni anglatadi.[204] “Kinoya” termini ko‘pincha mustaqillikkacha rus va boshqa xalqlar adabiyotshunosligida qo‘llanadigan “ironiya” termini bilan atab kelingan. Lekin ma’nosiga ko‘ra “ironiya” semantikasi keng, kinoyaniki esa torroq. Shuning uchun ironiya va kinoya atamalari o‘zaro sinonim emas.

Kinoya va unga yondosh hodisalar inson ongining murakkab idrok mexanizmlari hisoblanib, tilning obrazli imkoniyatlari va madaniy kontekstning sintezi sifatida ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Ular nafaqat adabiy san’atning, balki inson tafakkuri hamda kommunikatsiyasining muhim qismi sifatida ko‘riladi. Adabiy san’atda ishlatiladigan metafora, metonimiya, sinekdoxa, litota va giperbola kabi obrazli ifoda vositalari troplar sifatida o‘rganiladi. Ularning ilmiy asosi semiotika, kognitiv lingvistika hamda psixolingvistika kabi fanlar doirasida tahlil qilinadi.

Tarjimashunoslikdagi dinamik ekvivalentlik. Kinoya milliy mentalitet, madaniy konventsiyalar va tarixiy stereotiplar bilan chambarchas bog‘liqdir (masalan, o‘zbek tilidagi “gul yuzli qiz” bilan ingliz tilidagi “rose-cheeked maiden” obrazlarining pragmatik foni o‘ziga xosdir)[205]. E. Nida ta’kidlaganidek, tarjimada formal (so‘zma-so‘z) emas, balki dinamik ekvivalentlik ustuvor

[203] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси, 70-бет, https://www.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/
[204] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси, 69-бет, Ziyouz.com кутубхонаси
[205] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

bo‘lishi zarur.[206] Kinoyaviy ibora begona tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girilsa, uning kinoyaviy pafosi yo‘qolib, mutlaqo noto‘g‘ri ma’no hosil bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kinoya va uning o‘tkir shakli bo‘lgan sarkazm ko‘p qirrali semiotik va kognitiv tuzilmadir. Ular inson ongining bilvosita ma’no hosil qilish qobiliyatini namoyon etadi. O‘zbek tilidagi “zaharxanda kinoya”,“istehzo” va “pisanda” kabi birliklar kinoyaning tilda chuqur differensiatsiyalashgan lisoniy-estetik tizimga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu hodisalarni tarjima qilish va tahlil etishda pragmatik kontekst va dinamik ekvivalentlik tamoyillari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saussure F. de. Cours de linguistique générale. – Paris: Payot, 1916. – 331 p.
2. Peirce C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Vol. 2: Elements of Logic. – Cambridge: Harvard University Press, 1932. – 535 p.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
4. Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.
5. Chomsky N. Language and Mind. – New York: Harcourt, Brace & World, 1968. – 88 p.
6. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – 144 b.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси, 70-бет, https://www.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси, 69-бет, Ziyouz.com кутубхонаси

[206] Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz